


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 13 368,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 foizga teng bo'ldi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida YAHM deflyator indeksi 114,5 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda 2022- yil yanvar-iyun oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 103,4 foiz (umumiyl ulushning 38,7 foizi), jami xizmatlar - 105,1 foiz (umumiyl ulushning 38,8 foizi), sanoat – 115,4 foiz (umumiyl ulushning 15,7 foizi) ni tashkil qildi.


**Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi**

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>2021- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	<i>2022- yil yanvar-iyun</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	11 000,0	13 368,8	106,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	10 607,9	12 907,3	105,7
mahsulotlarga sof soliqlar	392,1	461,5	116,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	10 607,9	12 907,3	105,7
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	4 236,7	4 990,5	103,4
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	2 120,1	2 906,8	111,9
sanoat	1 377,1	2 023,4	115,4
qurilish	743,0	883,4	105,3
Xizmatlar	4 251,1	5 010,0	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	639,4	774,8	108,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	666,3	798,7	114,0
boshqa xizmat tarmoqlari	2 945,4	3 436,5	102,4

2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’sir sanoat (ishlab chiqarish indeksi 115,4 foiz) va qurilish (o‘sish sur’ati 105,3 foiz) tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 68,8 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2021- yil yanvar-iyun oylarida 72,1 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da (jamiga nisbatan foizda)


2022- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 38,7 foizni tashkil qildi va 2021- yilning yanvar-iyun oylariga (39,9 foiz) nisbatan 1,2 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 22,5 foizni tashkil qilib, 2021 - yil yanvar-iyun oylariga (20,0 foiz) nisbatan 2,5 punktga ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 38,8 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga (40,1 foiz) nisbatan 1,3 punktga kamaydi.




Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)

2021- yil




2022- yil




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘sishgan hissasi 3,4 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan.

Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda




Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 925,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 foiz o‘sishga erishildi.

*Yanvar-iyun oylarida viloyat aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o'sish sur'ati*



*Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)*



2022- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 38,8 foiz (2021- yil yanvar-iyun oylarida 40,1 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 6,0 foizni (2021- yil yanvar-iyun oylarida 6,0 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 6,3 foizni (2021- yil yanvar-iyun oylarida 6,2 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 27,8 foizni (2021-yil yanvar-iyun oylarida 26,6 foiz) tashkil etdi.

**O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining
asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari**
(2022- yil yanvar-iyun)

	<i>O‘zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi % da</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati % da</i>	<i>yanvar-iyun 2021 - y.</i>	<i>yanvar-iyun 2022- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	389 631,2	105,4	13 368,8	106,1	3,4	3,4
Sanoat	251 372,8	105,1	8 333,8	115,4	2,7	3,3
Iste’mol mollari	86 870,4	127,8	5 259,1	123,5	5,2	6,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	131 722,0	102,7	8 589,4	103,5	6,3	6,5
Investitsiyalar	121 806,4	109,4	3 411,2	104,7	2,9	2,8
Qurilish ishlari	60 325,4	106,2	2 019,3	105,3	3,4	3,3
Chakana tovar aylanmasi	134 135,9	109,9	5561,2	112,8	4,0	4,1
Xizmatlar, jami	160 558,5	114,5	4 722,0	112,5	3,0	2,9
Eksport (mln. AQSh doll.)	9 924,6	140,5	126,3	118,9	1,5	1,3
Import (mln. AQSh doll.)	14 566,4	127,4	243,2	123,1	1,7	1,7

2022- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 13 368,8 mld. so‘mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,4 foizni tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 333,8 mld. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,3 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,4 foizni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 5 259,1 mld. so‘mlik xalq iste’mol mollari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 6,1 foizi) ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 123,5 foizni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 8 589,4 mld. so‘mni (respublikada qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 6,5 foiz) tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,5 foizga etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 411,2 mld. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni (respublikadagi ulushi 2,8 foiz) tashkil etdi.

2022-yil yanvar-iyun oylarida 2 019,3 mld. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,3 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 foizni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 561,2 mld. so‘mni (respublikadagi ulushi 4,1 foiz), o‘sish sur’ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 112,8 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 4 722,0 mld. so‘mni, (respublikadagi ulushi 2,9 foizni) tashkil qildi va 2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish 112,5 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 369,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,5 foizni), o‘sish sur’ati 21,6 foizni, jumladan: eksport – 126,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), o‘sish sur’ati 118,9 foizni, import – 243,2 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,7 foizni), o‘sish sur’ati 123,1 foizni tashkil etdi.